



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-iyun

304-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 257-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyundagi 257-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 13-iyundagi 257-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o‘rnatishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi;

Qonun bilan o‘rnatilgan talablar va mexanizmlarni davlat organlari va tashkilotlarida samarali joriy etish, bu jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta‘minlash hamda ular uchun zarur tushuntirish ishlarini olib borish davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash mexanizmlarini samarali joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘luvchi holatlarni o‘rganish, ularni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilikka muvofiq bo‘lgan choralarning ko‘rilishida yagona amaliyotni shakllantirish;

davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta‘minotlari Qonun bilan belgilangan talablarga muvofiq takomillashtirilishini ta‘minlash;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish hamda hamkorligini rivojlantirish choralarini ko'rish;

jamiyatda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish bo'yicha huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi Respublika idoralararo komissiyasining ishchi organlari etib belgilanganligi;

Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan:

a) 2024-yil 1-iyulga qadar Qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlarining aniq ro'yxati shakllantirilishi;

b) Qonun kuchga kirguniga qadar unda belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq masalalar ro'yxatdagi davlat organlari va tashkilotlarida tegishli ishchi guruhlarini tuzgan holda o'rganilishi;

quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi:

davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan ularning faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlarga rioya etilishini o'rganish, jumladan o'rindoshlik asosida ishlash, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish kabi holatlarni aniqlash;

davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yilganligini hamda ularning malakali kadrlar bilan to'ldirilganligini o'rganish;

davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini baholash uchun joriy etilgan "E-anticor.uz" platformasidagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish;

davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlari Qonun talablariga muvofiqligini o'rganish, ularni takomillashtirish choralarini ko'rish;

v) Qonun kuchga kirganidan keyin:

har chorakda Respublika idoralararo komissiyasining ishchi organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlari kesimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holatlar tahlil qilinishini, bunday holatlar ko'paygan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo'lmaydigan choralarni belgilash uchun tegishli taqdimnomalar kiritilishi;

har yarim yilda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha ko'rilyotgan choralar Respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilib borilishi belgilanganligi;

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda davlat organlari va tashkilotlari uchun manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishi hamda 2024-yil 1-oktabrga qadar xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestri, mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlashlari qayd etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini tashkil etish bo‘yicha viloyat hokimligi komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida viloyatda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Tashkiliy-kadrlar guruhi (B.Bobaxonov) Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (D.Ermatov) bilan birgalikda hokimlik tizimida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot ishlari (seminar-trening, davra suhbatini) amalga oshirishi;

Qonun kuchga kirganidan keyin:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (D.Ermatov) tegishli boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari:

har chorakda Namangan viloyati hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holatlar tahlil qilinishini;

har yarim yilda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar tanqidiy muhokama qilib borilishini ta‘minlash;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov tegishli mutasaddilarni jalb qilgan holda joriy yilning 5-iyul kuniga qadar viloyat hokimligining idoraviy dasturini qabul qilinishini ta‘minlash topshirilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini tashkil etish bo‘yicha tuman hokimligi komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi doirasida tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari tegishli mutasaddilarni jalb qilgan holda joriy yilning 5-iyul kuniga qadar tegishli dastur qabul qilinishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 21-iyundagi  
304-6-81-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini tashkil etish  
bo‘yicha tuman hokimligi komissiyasi**

**TARKIBI**

<b>№</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>
1	<i>Lavozimga ko‘ra</i>	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, komissiya rais
2	U.Normatov	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari, komissiya raisining o‘rinbosari
<b>Komissiya a‘zolari:</b>		
3	B.Muydinov	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
4	X.Boylarov	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
5	Sh.Umaraliyev	Tuman hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i
6	J.Karimov	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
7	F.Egamberdiyeva	Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i
8	O.Xojibekov	Tuman hokimligi bosh yuristkonsuli

**Izoh:** Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

Mingbuloq tuman hokimining  
2024-yil 21-iyundagi  
304-6-81-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi doirasida tumanda 2024-yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan**

**“YO‘L XARITA”**

<b>№</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Mas’ullar</b>
1.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini o‘rnatishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunining mazmun- mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunining mazmunmohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan seminar-trening o‘tkazish va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish.	2024-yil iyun	Tuman hokimining matbuot kotibi – axborot xizmati rahbari (Sh.Kenjaev), Tuman Adliya bo‘limi (X.Qobilov), tuman hokimligi
2.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlarda yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash va natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish hamda aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlarda yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvida yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash; Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	2024-yil 25-iyul	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), tuman hokimligi
3.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlarda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalari bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlarda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish.	2024-yil iyul	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), tuman hokimligi
4.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlardan ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil (2 yil) ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalari bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish.	Tuman hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi bo‘lim va tashkilotlardan ishdan bo‘shagan xodimning ikki yil (2 yil) ichida o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash; Aniqlangan holatlar bo‘yicha ma’lumotni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga	2024-yil iyul	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), tuman hokimligi

		taqdim qilish		
5.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlar xodimlarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), Tuman Soliq inspeksiyasi (J.Karimov), Tuman hokimligi
6.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlardan ishdan bo'shagan xodimning ikki yil ichida o'z ish joyida bevosita nazoratida bo'lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralari ko'rish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma  Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyul  2024-yil oktabr	Davlat organlari va tashkilotlari  Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tuziladigan ishchi guruh
7.	Xodim o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlarning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma  Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyul  2024-yil Oktabr	Davlat organlari va tashkilotlari  Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tuziladigan ishchi guruh
8.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlar xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish. Aniqlangan holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish choralari ko'rish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma  Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil iyul  2024-yil oktabr	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), Tuman Adliya bo'limi (X.Qobilov), tuman hokimligi
9.	Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil	Tuman hokimligi

	berish va ularni tartibga solish tizimi joriy etilmagan (Tuman hokimligi bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlaridagi) holatlarni tahlil qilish.		avgust	Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), Tuman Adliya bo'limi (X.Qobilov), tuman hokimligi
10.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishning elektron tizimi yo'lga qo'yilganligini o'rganish hamda bunday tizimni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish.	Axborot-tahliliy ma'lumotnoma	2024-yil sentabr	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), Tuman Adliya bo'limi (X.Qobilov), tuman hokimligi
11.	Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning tasdiqlangan namunaviy shakllarini Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlari rasmiy veb-saytlariga joylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil sentabr	Davlat organlari va tashkilotlari
12.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlar xodimlari ish stolida eslatma sifatida foydalanishi uchun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar va bunday vaziyatlarda ko'riladigan choralar bo'yicha illyustrativ tarqatma materiallarni ishlab chiqish hamda tarqatish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil avgust	Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (U.Normatov), Tuman Adliya bo'limi (X.Qobilov), tuman hokimligi
13.	Tuman hokimligi, uning bo'ysunuvidagi bo'lim va tashkilotlarning manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallarini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib qilish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil oktabr	Tuman hokimining matbuot kotibi – axborot xizmati rahbari (Sh.Kenjaev), tuman hokimligi